

LEGAL STATUS OF STATE HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Murodullayev Shohboz

Ministry Of Justice Of The Republic Of Uzbekistan

Tashkent State Law University

Teacher of the Department of administrative and financial law

Annotation: this article covers the legal status of State Higher Education Institutions in the Republic of Uzbekistan, their organizational and legal form, management system and financial independence. Also, within the framework of reforms in the field of Higher Education, the legal framework for expanding the autonomy of State Higher Education Institutions is analyzed.

Keywords: State Higher Education Institution, legal status, autonomy, management system, financial independence, educational reform.

DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING HUQUQIY MAQOMI

Murodullayev Shohboz

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi davlat oliy ta'lim muassasalarining huquqiy maqomi, ularning tashkiliy-huquqiy shakli, boshqaruv tizimi va moliyaviy mustaqilligi masalalari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida davlat oliy ta'lim muassasalarining avtonomiyasini kengaytirishning huquqiy asoslari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: davlat oliy ta'lim muassasasi, huquqiy maqom, avtonomiya, boshqaruv tizimi, moliyaviy mustaqillik, ta'lim islohotlari.

Maqolaning maqsadi: davlat oliy ta'lim muassasalarining huquqiy maqomini aniqlash, ularning tashkiliy-huquqiy shaklini, boshqaruv tizimini va moliyaviy mustaqilligini huquqiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lib, u malakali mutaxassislarini tayyorlash, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Davlat oliy ta'lim muassasalari (OTM) esa ushbu tizimning asosiy subyektlaridan biri sifatida o'ziga xos huquqiy maqomga ega. Davlat oliy ta'lim muassasalarining faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risida" gi nizomi, shuningdek Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyruqlari asosida tartibga solinadi.



O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuniga ko'ra, - "davlat ta'lim muassasasi - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa" hisoblanadi."¹

Ushbu ta'rifdan kelib chiqib, davlat ta'lim muassasasining quyidagi huquqiy belgilarini ajratish mumkin:

- Davlat asoschilik huquqiga ega - muassasani tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish davlat organlari vakolatiga kiradi.
- Mulk shakli davlatniki - muassasa o'z mol-mulkidan faqat xo'jalik yuritish huquqi asosida foydalanadi.
- Faoliyati davlat standartlariga bo'ysunadi - bu ta'lim sifatini kafolatlaydi, biroq avtonomiyani cheklaydi.
- Tashkiliy shakli - muassasa - notijorat yuridik shaxs bo'lib, asosiy maqsadi foyda olish emas, balki ta'lim xizmatini ko'rsatishdir.

Shunday qilib, davlat ta'lim muassasasi - bu davlat siyosatini amalga oshiruvchi, davlat mulki asosida faoliyat yurituvchi va ta'lim standartlariga muvofiq ishlovchi notijorat tashkilot sifatida huquqiy maqomga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

"Oliy ta'lim muassasalarining boshqaruvi va moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, ularni haqiqiy ilm va innovatsiya markaziga aylantirish — bu sohada eng ustuvor vazifalardan biridir."²

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu fikrida davlat oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimini isloh qilish zarurati alohida ta'kidlanadi. Gap faqat ta'lim sifatini oshirishda emas, balki OTMlarni ilm-fan, innovatsiya va tadqiqot markazlariga aylantirish orqali ularning jamiyatdagi rolini kuchaytirishdadir. Bu fikr davlat oliy ta'lim muassasalarining avtonomiyasini kengaytirish, ya'ni ularning tashkiliy, akademik va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash zarurligini anglatadi. Shu orqali OTMlar o'z strategik yo'nalishini mustaqil belgilay oladigan, zamonaviy boshqaruv tamoyillariga asoslangan subyektlarga aylanishi mumkin.

Demak, yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, davlat oliy ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi va ular davlat siyosatini amalga oshiruvchi asosiy subyektlar sifatida huquqiy jihatdan mustahkam maqomga ega. Ushbu maqom ularning tashkiliy-huquqiy shaklini, mulkchilik turini hamda faoliyat doirasini belgilab beradi. Biroq huquqiy maqomning to'liq amal qilishi uchun oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimi va moliyaviy mustaqilligi aniq mexanizmlar bilan ta'minlanishi zarur. Shu bois keyingi qismda davlat oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimi, uning huquqiy asoslari hamda amaldagi islohotlar mazmuni tahlil qilinadi.

Bundan tashqari Davlat oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimi haqida to'htaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarining boshqaruvi ikki darajada amalga oshiriladi: markaziy (davlat) darajada va muassasa darajasida. Markaziy boshqaruv darajasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi davlat siyosatini ishlab chiqish, ta'lim standartlarini tasdiqlash, o'quv rejalari va kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish vakolatiga ega.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, 3-modda

² <https://president.uz/oz>



Muassasa darajasida esa boshqaruv rektor tomonidan amalga oshiriladi va u oliy ta'lim muassasasining butun faoliyati uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy kengash, fakultet kengashlari va rektor huzuridagi maslahatchi organlar faoliyat yuritadi. Ushbu kollegial boshqaruv organlari OTM faoliyatida ochiqlik, hamjihatlik va jamoaviy qaror qabul qilish tamoyillarini ta'minlaydi. Bu esa universitet boshqaruvini faqat ma'muriy buyruqlar emas, balki ilmiy-pedagogik jamoaning fikri asosida olib borish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonida oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, ularni iqtisodiy va tashkiliy jihatdan mustaqil subyektlarga aylantirish zarurligi alohida qayd etilgan. Mazkur hujjatda OTMlarni davlat tomonidan qat'iy tartibga solishdan bosqichma-bosqich avtonom boshqaruvga o'tish konseptual yo'nalish sifatida belgilangan.³

Davlat oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimida muhim jihatlardan yana biri - akademik avtonomiyani kengaytirishdir. Bu, o'z navbatida, o'quv dasturlari va ta'lim yo'nalishlarini mustaqil tanlash, yangi fanlarni kiritish, ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini belgilash hamda xalqaro akkreditatsiya talablariga mos o'qitish tizimini yaratish imkonini beradi. Shu tariqa, boshqaruv tizimining isloh qilinishi davlat oliy ta'lim muassasalarini haqiqiy ilm-fan va innovatsiya markazlariga aylantirishning asosiy garovidir.

Davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va uning huquqiy asoslariga to'htaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ta'lim muassasasining rivojlanishi, ilmiy faoliyatni kengaytirish hamda xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallashi ko'p jihatdan uning moliyaviy erkinligiga bog'liq. Amaldagi huquqiy tartibga ko'ra, davlat oliy ta'lim muassasalari davlat byudjeti mablag'lari, grantlar, kontrakt to'lovlari, homiylik xayriyalari, xalqaro moliyaviy institutlar ko'magida ajratiladigan mablag'lar va o'z faoliyatidan tushgan daromadlar hisobiga moliyalashtiriladi.

Moliyaviy mustaqillik darajasining oshirilishi, eng avvalo, oliy ta'lim muassasalariga quyidagi huquqiy imkoniyatlarni beradi:

1. o'z daromad manbalarini mustaqil shakllantirish va ulardan samarali foydalanish;
2. iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, shu jumladan, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish;
3. homiylik va grant mablag'larini mustaqil boshqarish;
4. xodimlarga mehnat haqi, ustama va mukofotlarni mustaqil belgilash;
5. ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021 yildagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son qarori ushbu yo'nalishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur qaror asosida ayrim

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni



universitetlarga byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish va ularni o'z xohishiga ko'ra taqsimlash vakolati berilgan.⁴

Bu jarayon O'zbekiston oliy ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, xalqaro standartlarga mos boshqaruv modelini shakllantirish va universitetlarni moliyaviy jihatdan barqaror subyektlarga aylantirishni ko'zda tutadi.

Shu bilan birga, moliyaviy mustaqillikni kengaytirish masalasi muayyan xavf va mas'uliyatni ham yuzaga keltiradi. Ya'ni, universitetlarning o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tishi ularning boshqaruvida ochiqlik, samaradorlik va javobgarlik tamoyillarini qat'iy amal qilishini talab etadi. Shu sababli, moliyaviy mustaqillik jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va har bir bosqichda normativ-huquqiy asoslar mustahkamlanib borishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida davlat oliy ta'lim muassasalarining huquqiy maqomi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ta'lim siyosatidagi islohotlar bilan chambarchas bog'liq holda shakllanib bormoqda. Bugungi kunda davlat OTMlari notijorat yuridik shaxs sifatida davlat siyosatini amalga oshiruvchi, ta'lim standartlari asosida faoliyat yurituvchi va milliy kadrlar tayyorlash tizimining poydevorini tashkil etuvchi muhim subyektlardir.

So'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar ularning tashkiliy-huquqiy shaklini yangilash, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish hamda moliyaviy mustaqilligini kengaytirishga qaratilgan. Bu esa oliy ta'lim muassasalarining nafaqat davlat byudjetiga qaramligini kamaytiradi, balki ularning o'z rivojlanish strategiyasini mustaqil belgilash imkonini ham beradi. Shu bilan birga, moliyaviy erkinlik va akademik avtonomiya OTMlarning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va innovatsion faoliyatni kengaytirish uchun huquqiy zamin yaratadi.

Biroq amaliyotda ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, moliyaviy mustaqillikni to'liq amalga oshirish mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmagani, boshqaruv tizimida markazlashuv unsurlarining saqlanib qolayotgani hamda akademik avtonomiya doirasining cheklanganligi OTMlarning to'liq erkin faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Davlat oliy ta'lim muassasalarining huquqiy maqomini "avtonom davlat muassasasi" sifatida belgilash mexanizmini normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash;
2. OTMlarda korporativ boshqaruv elementlarini (kuzatuv kengashi, tashqi audit, ochiq hisobot) joriy etish orqali javobgarlik va shaffoflikni kuchaytirish;
3. Universitetlarning moliyaviy mustaqillik darajasini bosqichma-bosqich kengaytirish, shu jumladan, grant va homiylik mablag'larini mustaqil boshqarish vakolatini to'liq berish;
4. Akademik avtonomiya doirasida OTMlarga ta'lim dasturlari va o'quv fanlarini mustaqil belgilash huquqini kengaytirish, xalqaro akkreditatsiya tizimlariga integratsiyani kuchaytirish;
5. Davlat tomonidan nazoratdan ko'ra monitoring va baholash tizimiga asoslangan, ishonchga tayanadigan boshqaruv modelini joriy etish.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, davlat oliy ta'lim muassasalarining huquqiy maqomini mustahkamlash, ularning boshqaruv va moliyaviy avtonomiyasini kengaytirish O'zbekistonning

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021 yildagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son qarori



zamonaviy, raqobatbardosh ta'lim tizimini shakllantirish yo'lidagi eng muhim bosqichlardan biridir.

Foydalanilgan manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021 yildagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni
4. <https://president.uz/oz>

